

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-2/4

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Nasirdinova O.D. Orttirma nisbat shakllarining lingvistik ilmiy matnlarda qo'llanish darajasi	219
Nazimova H. Xalq o'g'zaki ijodida "dev" va "yalmog'iz" obrazlarining genezisiga doir nazariy qarashlar talqini	223
Niyozova Sh.T. The place of contrastive linguistics in the paradigm of linguistic sciences	226
Nizomova T.J. Sud diskursi tadqiqi va uning lingvistik xususiyatlari	230
Otaqulova S.F. Faxriya genezisi va nazariy asoslari	232
O'ngboyev R.M. "Yusufbek" dostonidagi antroponimlarning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari	235
Qilichova E.X. Fizikaga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari: ko'p ma'nolilik, sinonimiya va leksik o'zgarishlar misolida	239
Qobilova N.S., Fayzullayeva N.S. Til evolyutsiyasi va tejamlilik tamoyili	242
Qobilova N.S., Fayzullayeva N.S. Poeziyada fonetik tejamlilikning ifodalanishi	245
Qodirova G.M. Umumta'lim maktablarida jadid she'riyatining o'qitilishi	249
Qosimjonova F. Iboralarning grammatik tabiatini aniqlashda kognitiv lingvistika va qiyosiy lingvistikaning ahamiyati	252
Qo'ldasheva Sh.A. Ko'pmadaniyatlilik sharoitida tilda intellektuallashuv va demokratlashuv tendentsiyalari	256
Qurbonaliyeva M.S. To'fon haqida afsonalar tahlili	258
Radjabova D.R. Badiiy tarjimaning funksional pragmatik xususiyatlari	262
Raximova U.S., Turamuratova S.B. Ingliz va o'zbek tillarida jargon so'zlarning sotsiolingvistik xususiyatlari	265
Ruzimbaeva N.T. The language of forensic science: precision and clarity in legal documentation	268
Sabirova N.E. Xorazm baxshichilik san'ati: an'anaviylik va ijrochilik	271
Safarova Z.Q. Shaxs ma'naviyatini ifodalovchi lingvokulturologik birliklarning talqini	275
Saidov M.O. Rus, o'zbek va ingliz maqollarida paremiologiyaning semantik birligi	277
Saidova M.U., Shamsiyeva S.R. Nasriy asar namunalari yaratishda badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanish	279
Saidova Z.Kh. Importance of understanding key features of psychological aspects of language	283
Salimova S. Xitoy tilidagi harbiy terminlarni standartlashtirish masalalari	286
Satimboyeva O.A. Tilshunoslar tadqiqotlarida interferensiya nazariyasi, fonetik interferensiya	289
Shamsiyeva M.B. Tabiat elementlari tavsiflangan peyzaj matnlarining lingvokognitiv tahlili	292
Sharipova S.A. Zamonaviy tilshunoslikda neologizmlarning xususiyatlari va funksiyalarini kompleks o'rganish	295
Shodikulova A.Z. Antonim va giponim vositasida shakllanadigan metonimik kogeziya	298
Shokirov Sh.I. Ingliz va o'zbek tillarida ko'rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik xususiyati	301
Soatova Yu. Bobur lirik asarlarida gender xususiyatlarni ko'rsata oluvchi obrazlarning komponent tahlili	303
Soyipov S. "Boburnoma" asari tilida qo'llanilgan ayrim forscha sifat so'z turkumiga oid so'zlarning leksik-semantik hamda grammatik tahlili	307
Subxonova N.M. Realism and personal development in defoe's robinson crusoe: the socio-spiritual role of diligence and self-cultivation	310
Suleymanova N.M., Ravshanova R.F., Soleyeva S.S. Jamiyatda so'zning ahamiyati	313
Suyunova D.R. Shoyim Bo'tayev qissalarida badiiy konflikt	315
Tursunov M.M., Azimova Z.O'. Fentezi janriga oid asarlarning o'ziga xos xususiyatlari	318
Tursunov M.M., Turayeva R.R. Analysis of linguo-cultural features of some english and uzbek phraseological units	321

synsets, NLP models can distinguish between subtle verb variations, enhancing semantic search, text summarization, and machine learning applications. Despite these advancements, several challenges remain. One limitation of this study is the availability of comprehensive Uzbek linguistic resources. While corpus-based methods helped address gaps, the development of a larger, annotated dataset would enhance future research. Additionally, computational models trained on Uzbek still require fine-tuning due to limited training data compared to English or Russian NLP resources.

Conclusion. This study successfully developed a structured framework for Uzbek verb synsets, integrating semantic principles and computational modeling. The results confirm that synonymy, troponymy, and hierarchical verb relationships play a significant role in the organization of Uzbek verbs. Through corpus-based analysis and machine learning techniques, 210 verb synsets were identified, categorized, and validated. The findings emphasize the dominance of motion, cognitive, and communication verbs, which are essential for Uzbek discourse. The high corpus frequency of these verbs further supports their linguistic relevance. Additionally, the use of computational models (Word2Vec, BERT) demonstrated that automated methods can effectively group semantically related verbs, achieving an average similarity score of 0.82 within synsets.

This research has practical implications for NLP, particularly in machine translation, text classification, and word sense disambiguation (WSD). The structured synsets enhance semantic search capabilities, improving the accuracy of Uzbek language processing models. However, the study also highlights challenges, including limited linguistic resources for Uzbek and the need for ongoing refinement of computational models. Future research should focus on expanding the dataset, integrating more advanced NLP techniques, and refining verb classification models. Overall, this study provides a foundation for further exploration in Uzbek computational linguistics, offering insights into verb semantics, synset structure, and practical language applications. The findings contribute to both theoretical linguistics and applied NLP, paving the way for more advanced Uzbek-language processing tools.

REFERENCES:

1. Miller, G. A. WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge, MA: MIT Press, 1998. 423 p.
2. Miller, G. A. & Fellbaum, C. Semantic Networks of English. Computational Linguistics, 1991, vol. 17, no. 2, pp. 45–56.
3. Fellbaum, C. WordNet and the Organization of Lexical Memory. Cambridge, MA: MIT Press, 1998. 317 p.
4. Vossen, P. EuroWordNet: A Multilingual Database with Lexical Semantic Networks. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1998. 280 p.
5. Yusupov, Sh. The Structure of Uzbek Verb Synsets in Computational Linguistics. Tashkent: UzMU Publishing, 2015. 198 p.
6. Abdug'aniyev, N. Computational Applications of Uzbek Verb Synsets. Uzbek Linguistic Journal, 2020, no. 3, pp. 63–75.
7. Mukhin, M. & Ogorodnikova, E. The Role of Neural Networks in Automated Synset Formation. Russian Computational Linguistics Journal, 2021, vol. 29, no. 4, pp. 88–102.

UO'K 81'366.553

ORTTIRMA NISBAT SHAKLLARINING LINGVISTIK ILMIY MATNLARDA QO'LLANISH DARAJASI

*O.D.Nasirdinova, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
Universiteti, Toshkent*

Annotatsiya. Fe'lga xos kategorial shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash o'zbek tili grammatik qonuniyatlarini aniq, tartibli va tizimli shakllantirish uchun lingvistik asos yaratilishiga xizmat qiladi. Bunda nutqda voqelangan so'zlar kabi har bir so'z turkumiga oid shakllar ham faol yoki nofaolligiga ko'ra morfologik darajalanadi. Ortirma nisbat shakllarining lingvostatistik tahlili nutq birliklari doirasida miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga ta'siri hamda ushbu tadqiqot metodologiyasi – morfostatistika bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy ishning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: nisbat kategoriyasi, ortirma nisbat shakllari, lingvostatistik metod, chastota tahlili, morfostatistika, morfologik darajalanish, tanlanmalar.

Аннотация. *Определение степени употребления категориальных аффиксов, характерных для глагола, в речи способствует созданию лингвистической основы для точного, упорядоченного и систематизированного формирования грамматических закономерностей узбекского языка. В этом процессе, наряду с актуализированными в речи словами, аффиксы, относящиеся к каждой части речи, также классифицируются по морфологическим уровням в зависимости от их активности или неактивности. Лингвостатистический анализ аффиксов каузативного залога выявляет влияние количественных изменений речевых единиц на качественные изменения, а также является частью научно-практической работы, проводимой в рамках данной методологии исследования — морфостатистики.*

Ключевые слова: *категория залога, формы каузативного залога, лингвостатистический метод, частотный анализ, морфостатистика, морфологическая градация, выборки.*

Abstract. *Determining the degree of usage of categorical affixes characteristic of verbs in speech contributes to the creation of a linguistic foundation for the precise, orderly, and systematic formation of the grammatical rules of the Uzbek language. In this process, along with words actualized in speech, affixes related to each part of speech are also classified at morphological levels based on their activity or inactivity. The lingvostatistical analysis of causative voice affixes reveals the impact of quantitative changes in speech units on qualitative transformations and serves as a part of the scientific and practical work conducted within the framework of this research methodology – morphostatistics.*

Keywords: *voice category, causative voice forms, lingvostatistical method, frequency analysis, morphostatistics, morphological gradation, samples.*

Kirish. O‘zbek tili lug‘atining salmoqli qismini fe‘l so‘z turkumiga oid birliklar tashkil etadi. O‘zbek tilining VI jilddan iborat izohli lug‘atida ibora-fe‘llardan tashqari 4700 ga yaqin leksema-fe‘llar (ba‘zi nisbat shaklli fe‘llar bilan hisoblaganda) mavjudligini kuzatish mumkin. Shuningdek, fe‘lga oid grammatik shakllar invariant va variantlari bilan hisoblaganda deyarli 100 tani tashkil etadi va ular fe‘l so‘z turkumiga oid 7 ta grammatik kategoriya (nisbat, o‘zgalovchi, zamon, shaxs-son, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, tasdiq-inkor) ga birlashib, til sathida alohida morfologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Fe‘l grammatik kategoriyalaridan biri nisbat shakllari ushbu so‘z turkumining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi aniq (aynan yagona grammatik shaklga ega emas), ortirma, o‘zlik, majhul va birgalik kabi turlar doirasida 29 ta fe‘lning lug‘aviy shakl yasovchi shakllarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari bir fe‘l tarkibida ushbu shakllar turli kompozitsiyalarda namoyon bo‘ladi va natijada ularning statistik ko‘lami ham kengayib boradi. Fe‘l so‘z turkumiga oid grammatik birliklar statistikasini o‘rganish va turli nutq uslubidagi matnlarda miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish o‘zbek tilidagi shakllarni faol va nofaol turlarga bo‘lish, ularni nutqda maqsadli ishlatish orqali o‘zbek va ona tili grammatikasini o‘rganuvchilar uchun tartibli, tizimli va darajalangan shakllar ro‘yxatini yaratishda lingvistik asos bo‘lib xizmat qiladi. “O‘zbek tilining fe‘l shakllari lug‘ati” da aytilishicha, birgina nisbat shakllarining alohida va birgalikdagi kompozitsiyalarining barchasi 62 xil shaklga ega bo‘lib, izlanish natijalari elektron lug‘atlar, ta‘limiy korpus, turli lingvistik dasturlar, orfografik tekshiruv, tarjima dasturlari uchun qimmatli manba hisoblanadi. [3]

Metodologiya. Ilmiy uslubga xos matnlar mavzu jihatidan ko‘lami keng, turli kasb-hunar, sohaviy, fan tarmoqlari doirasidagi muayyan yo‘nalish va ixtisoslik matnlarini o‘z ichiga oladi. Ilmiy matnlarda qo‘llanuvchi leksik va grammatik shakllar uslub qonuniyatlari va tamoyillari asosida nutqda o‘z aksini topadi. Statistik-chastota tahliliga tortilgan ilmiy matnlarda faol ko‘rsatkichli leksik va grammatik shakllar uslub prinsplaridan tashqari mavzuiy ko‘lami doirasida ham o‘ziga xoslikni namoyon qiladi. Biz tomonimizdan tadqiqqa olingan lingvistik matnlarda nisbat shakllarining statistik holatini tekshirish orqali yuqoridagi fikrlar aniq asoslangan ilmiy xulosalarni shakllantiradi. Lingvostatistik tahlilga asoslangan tadqiqotlarda, bizningcha, tanlanmalar – tanlangan, ma‘lum uslub va mavzuga oid matnlar, chastota tahlili amalga oshiriladigan birliklar va ularning jadvali asosiy “tadqiq qurollari” sanaladi. Bunda tanlanma sifatida 30 ta ilmiy uslubga oid lingvistik mavzuli

matnlar – avtoreferatlar, ilmiy anjuman materiallari va ilmiy maqolalar olingan bo‘lib, ular miqdoran 331761 so‘zdan iborat. Lingvostatistik tahlillar odatda qo‘lda yoki til korpuslariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Grammatik shakllarning, jumladan, alohida olingan fe‘l nisbat shakllari (*-tir*, *-kaz* kabi) miqdori va chastotasini o‘zbek tili korpuslarida to‘g‘ridan to‘g‘ri izlash va topishning iloji yo‘q, ular diomo so‘zshakl tarkibida namoyon bo‘ladi. Shu sababli maqsadli tanlanmalar ustida ishlanganda (keyinchalik bu asosida o‘zbek tili korpuslari tarkibida nutq uslublari va mavzuiy guruhlariga birlashtirilgan subkorpuslar yaratilishi mumkin) muayyan uslub va mavzuli matnlar to‘plami jamlanadi, grammatik shakllar esa qo‘lda sanab chiqiladi va chastotasi aniqlanadi. Aniq chastotaga ega shakllar nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra “ko‘pdan kamga tomon” tartiblashtiriladi, natijada nisbat shakllari nutqda ishlatilishiga ko‘ra faol va nafaol turlarga bo‘linadi.

Natijalar. Fe‘l nisbat shakllarining nutqda qo‘llanish darajasini aniqlashda tanlanma matnlar quyidagi tasnifga asoslanishini ma’qul topdik:

1-jadval

I.	Davr ko‘rsatkichi	2000-2025-yillar oralig‘i	
II.	Matn shakli	yozma (o‘zbek adabiy tili asosida)	
III.	Nutq uslublari	Mavzuiy guruhlar, tur va janrlar	So‘zlar soni
1.	Ilmiy uslub	Lingvistika Adabiyot Tabiiy fanlar Aniq va texnik fanlar Ijtimoiy-gumanitar soha Huquqiy sohaga oid ilmiy matnlar	1 milliontadan

Lingvistik mavzuga oid ilmiy matnlarda fe‘l orttirma nisbat shaklining 17 shakli – (-t), -it, -dir, -tir, -iz, -az, -ir, -ar, -sat, -gaz, -kaz, -g‘az, -qaz, -giz, -kiz, -qiz, -g‘iz shakllarining statistikasini aniqlash natijasida quyidagicha darajalangan jadval yuzaga keldi:

2-jadval

N	Orttirma nisbat shakllari	Qo‘llanish chastotasi	N	Orttirma nisbat shakllari	Qo‘llanish chastotasi
1.	<i>-t</i>	2374	10.	<i>-qiz</i>	2
	<i>-tir</i>	1909	11.	<i>-gaz</i>	1
	<i>-sat</i>	854	12.	<i>-qaz</i>	0
	<i>-it</i>	261	13.	<i>-g‘az</i>	0
	<i>-ir</i>	255	14.	<i>-kiz</i>	0
	<i>-dir</i>	196	15.	<i>-g‘iz</i>	0
	<i>-ar</i>	137	16.	<i>-iz</i>	0
	<i>-kaz</i>	2	17.	<i>-az</i>	0
	<i>-giz</i>	2			

Muhokama. Statistik natijalar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik mavzuli ilmiy matnlarda *-t* orttirma nisbat shakli eng faol shakl bo‘lib, u, aslida, o‘zbek tilidagi jami 872 ta fe‘lga birika oladi. Ushbu tanlanma matnlarida esa *-t* orttirma nisbat shaklini, asosan, *ajrat*, *boyit*, *bo‘shat*, *eslat*, *ishlat*, *kuzat*, *qarat*, *qisqart*, *tanit*, *tarqat*, *tugat*, *to‘lat* (*to‘liq qil*), *uchrat*, *yorit*, *yuklat*, *o‘qit*, *o‘ylat* kabi ilmiy nutq uslubiga xos fe‘llar tarkibida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, bu grammatik shakl *erit*, *erkalat*, *hurkit*, *jazolat*, *loyqalat*, *qarillat*, *qarit*, *qizit*, *silkit*, *taqillat*, *yumshat* kabi ilmiy uslubga xoslanmagan fe‘llarda ham namoyon bo‘ladi. Bizningcha, bu jarayonda tahlilga tortilayotgan shakl qatnashgan fe‘llarni nutq uslubiga xoslanganlik jihatidan 2 guruhga – uslubga xoslangan va uslubga xoslanmagan fe‘llar sifatida ajratish maqsadga muvofiq. Chunki lingvistik mavzuli ilmiy matnlarda uslubga xoslanmagan fe‘llar leksik birliklarga berilgan izohlarda, boshqa nutq uslublari (asosan, badiiy uslub) dan olingan misollar – gaplar ichida ishtirok etishi tabiiy.

Orttirma nisbatning *-tir* shakli nutqiy faollik darajasiga ko‘ra ikkinchi o‘rinni egallagan bo‘lib, tanlanma matnda jami 99 xil fe‘lning tarkibida turli chastotada namoyon bo‘ladi. Jumladan, bu grammatik shakl *keltirmoq*, *aks//davom ettirmoq*, *kengaytirmoq*, *shakllantirmoq*, *umumlashtirmoq*, *o‘zgartirmoq*, *kuchaytirmoq*, *ergashtirmoq*, *o‘zlashtirmoq*, *almashtirmoq*, *rivojlantirmoq*, *birlashtirmoq*, *kichraytirmoq*, *biriktirmoq*, *orttirmoq* kabi fe‘llar tarkibida qo‘llaniladi va ushbu fe‘llarning ham nutqda qo‘llanish faolligiga ta’sir etadi. Til birliklarining, balki nutq birliklarining ham tizimiy ravishda o‘zaro uzviyligi va aloqadorligi bu jarayon orqali isbotini topadi.

Birgina “*ko’rmoq*” fe’lining orttirma nisbat shaklini hosil qilishda qatnashadigan *-sat* shakli ham leksik, ham grammatik birlikning nutqiy faollik darajasi yuqori ekanligini ko’rsatadi. Bundan anglashiladiki, “*ko’rsatmoq*” fe’lining valentlik doirasi va sintaktik qurilma sifatidagi ishlatilish ko’lami keng. Bundan tashqari, *-it* orttirma nisbat shakli ham tanlanma matn tarkibi yagona “*kiritmoq*” fe’li tarkibida qo’llanilgan. Bu shakl yiqit, qo’rqit, hurkit kabi fe’llar tarkibida ham uchraydi, ammo leksemalar ilmiy uslubga xoslanmaganligi sababli statistik tahlilda nol ko’rsatkichga ega. *-ir* nisbat shakli eng ko’p “*oshirmoq*” fe’li orqali so’zshakl hosil qiladi, shuningdek, *tushirmoq*, *ko’chirmoq*, *bitiruv*, *bosh qotirmoq*, *ko’zdan kechirmoq* kabi so’z va iboralar tarkibida keng qo’llaniladi. *-ar* orttirma nisbat shakli esa tanlanmada faqatgina *chiqarmoq* va *qaytarmoq* fe’llariga birikib kelgan. Nisbatan nafaollik kasb etgan *-kaz* (*o’tkazmoq*), *-giz* (*yurgizmoq*, *kirgizmoq*), *-qiz* (*o’tqizmoq*, *yotqizmoq*), *-gaz* (*yurgazmoq*) shakllari ilmiy uslubga xoslanmagan, misol yoki so’zga izoh sifatida olingan badiiy uslubga xos matndan parchalar tarkibida uchraydi. Eng quyi pog’onada bo’lgan nafaol orttirma nisbat shakllari *-qaz*, *-g’az*, *-kiz*, *-g’iz*, *-iz*, *-az* shakllari tanlanmada uchramaganligi uchun ularni ilmiy uslubga xos bo’lmagan shakllar sifatida olish mumkin.

Nisbat shakllari muayyan fe’l guruhlaridagina xoslanib qolmay, ayrim semantik strukturasi murakkab fe’llarning aniq semem bog’lanmalari bilan munosabatga kirishishi yoki kirisha olmasligi hamda lug’aviy jihat ustunligini [6] hisobga olib, nisbat shakllarida grammatik ma’no bilan birga lug’aviy ma’no yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Shu nuqtayi nazardan “O’zbek tili izohli lug’ati”da [4] (VI jildlik) nisbat shaklga ega fe’llar ham alohida bosh so’z sifatida olinib izohlangan. Jumladan, *ajramoq* fe’lining *ajralmoq*, *ajralishmoq*, *ajratmoq*, *ajrashmoq* kabi nisbat shaklli ko’rinishlari izohli lug’atda alohida sharhlangan. Bu masala o’tgan asrda o’zbek lug’atchiligida ham dolzarb bo’lib, H.Yusufxo’jayevning tadqiqatlarida nisbat shakllarining izohli lug’atda bosh so’z sifatida berilishiga “aynan bir shakl bir o’rinda faqat nisbat yasashda, ikkinchidan, so’z yasashda, uchinchidan esa bir vaqtning o’zida ham shakl, ham nisbat, ham so’z yasashda ishtirok etishi” [8] muhim sabab sifatida ko’rsatilgan.

O’zbek tili akademik grammatikasida nisbat kategoriyasi “daraja kategoriyasi” deb nomlanib, harakatning subyekt va obyektga bo’lgan munosabatini ko’rsatishi va boshqa nisbat shakllariga qaraganda shakllarining salmoqdorligi ta’kidlanadi. [2] Ba’zi fe’llarning morfem tarkibi jumboqli bo’lganligi orttirma nisbat shakllarining miqdoriy tahliliga ta’sir etadi. Jumladan, *tuzatmoq*, *surishtirmoq*, *uzatmoq* kabi fe’llarda orttirma nisbat shakli bordek ko’rinsa-da, ularni morfemalarga ajratib bo’lmaydi.

Tilshunos A.Hojiyev o’zbek tilida so’zshakllarning yasalishi va uning tartibiga oid tadqiqotlarida fe’lga qo’shiluvchi kategorial shakllarning dastlabki tartibida orttirma nisbat shakllari turishi va har bir fe’l shaklida yasama fe’l shakli emas, balki fe’lning “harakat” ma’noli qismi shakl yasalish asosi sifatida bo’lishi tushuntiriladi. [1] Bundan tashqari, orttirma nisbatdagi leksik va grammatik jihatning qorishib ketishi hozirgi ayrim so’zlarning orttirma nisbat shaklida bo’lib, aniq nisbatga qayta olmasligidir: *o’rgat*, *uyg’or*, *yutqiz* kabi. [9] Aynan shu jihatlar ham orttirma nisbat shakllarining statistik holatini topishni biroz murakkablashtiradi, shakl va mazmunning nomutanosibligini namoyon etadi.

XXI asr o’zbek sistem tilshunosligida orttirma nisbat shakli va uning grammatik ma’nosi shunday ta’riflanadi: “Orttirma nisbat UGMsi “harakat bajaruvchisini orttirish, jarayonga “ortiqcha” bajaruvchini kiritish va o’timsiz fe’lni o’timli fe’lga aylantirish”. Orttirma nisbatda ish-harakatning subyekti ortib, ular bevosita va bilvosita subyektga ajraladi: *Halim o’qidi. Halim ukasini o’qitdi*. Birinchi gapda subyekt bitta. Ikkinchi gapda esa ikkita bo’lib, Halim bilvosita, ukasi bevosita bajaruvchilar. Bevosita subyekt unchalik ahamiyatli bo’lmaydi, shuning uchun u ko’p holda ifodalanmay qolaveradi.” [5] Fikrimizcha, ushbu ta’rif orttirma nisbatning aniq umumiy grammatik ma’nosini yoritib bergan. Subyektning bevosita yoki bilvosita harakatga aralashuvi fe’lning lug’aviy ma’nosiga katta ta’sir o’tkazmaydi, buni so’z yasovchi shakl tomon siljishiga sabab bo’lmaydi. Shu nuqtayi nazardan izohli lug’atda sof fe’l bosh so’z, nisbat shakllari bilan kelgan shakllari uning nutqdagi bir ko’rinishi sifatida yoritilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa shuki, til birliklarining nutqda voqelanish darajasini aniqlash o’zbek tili ko’nikmalarini baholash uchun joriy etilishi kutilayotgan tizimning lingvistik asosini yaratadi.

O'zbek tili agglyutinativ xususiyatiga ko'ra boyligi va har bir morfologik shaklning nutqda o'ziga xosligini inobatga olsak, morfostatistik tadqiqotlar leksik va sintaktik statistika bilan chambarchas holatda olib borilishi, bu borada tartibli va tizimli jamoaviy jarayon tashkil etilishi hamda lingvostatistik o'rganishlar uchun o'zbek tilining asliyatiga mos, umumiy va shu bilan birga yagona lingvistik tamoyil va mezonlar shakllantirilishi lozim. Bunda til hodisalari bilan bog'liq aniq ilmiy xulosalar nihoyatda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
2. O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
3. O'zbek tilining fe'l shakllari lug'ati. ("kiymoq" fe'li misolida) (Matn): lug'at / Sh. Hamroyeva, O'. Xoliyorov, G.Abdualimova. – Termiz: TerDU nashr-matbaa, 2021. – 492 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2019. – 459 b.
6. Suleymanova K. Morfologik birliklar sistemasida nisbat kategoriyasining o'rni: filol.fan.nomz...diss.avtoreferat. – Farg'ona: 2004.
7. Yo'ldoshev B., O'rinboeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – Samarqand: SamDU, 2013. – 102 b.
8. Yusufxo'jayeva H. O'zbek tili izohli lug'atida fe'llarning ishlanishi. – Toshkent: Fan, 1988. – 107 b.
9. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. (Jamoaviy monografiya). – Toshkent, 2008. – 522 b.

UO'K 82/821.35.0

XALQ O G'ZAKI IJODIDA “DEV” VA “YALMOG'IZ” OBRAZLARINING GENEZISIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TALQINI

H.Nazimova, magistrant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Jahon adabiyotshunosligida xalq og'zaki ijodini o'rganish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Barchamizga ayonki, insoniyat badiiy tafakkuri hosilasi o'laroq, yuzaga kelgan ibtidoiy odamlar dunyoqarashida shakllangan mifologik talqin negizida xalq og'zaki ijodi yuzaga kelgan. Og'zaki ijod namunalaridan oziqlangan adabiyot insonning ruhini shakllantirish vositasi sifatida mantiqiy va badiiy tafakkurning o'zaro aloqador hamda farqli jihatlarini o'zida mujassam etuvchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Mif, afsona, rivoyat, ertak kabi xalq og'zaki ijodi janrlarining asosiy maqsadi komil shaxs ma'nayitaning ruhiy qirralarini ezgu qarashlarga muvofiq tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqolamizda og'zaki ijod namunalarining qahramonlari bo'lgan “dev” hamda “yalmog'iz” obrazlarining paydo bo'lishiga doir qarashlarni tahlil qildik.

Kalit so'zlar: Dev, yalmog'iz, mif, afsona, asotir, rivoyat, ertak, epos.

Аннотация. В мировом литературоведении ведется широкомасштабная работа по изучению устного народного творчества. Всем нам ясно, что как производное художественного мышления человечества возникло устное народное творчество на основе мифологического толкования, сформировавшегося в мировоззрении первобытных людей. Литература, питаемая образцами устного творчества, как средство формирования души человека, является одним из видов искусства, воплощающим как взаимосвязанные, так и разные аспекты логического и художественного мышления. Основная цель таких жанров устного народного творчества, как миф, легенда, повествование, сказка, состоит в том, чтобы сформулировать духовные грани духовности совершенного человека в соответствии с добродетельным видением. В этой статье мы проанализировали взгляды на возникновение образов “великана”, а также “мяты”, которые являются героями образцов устного творчества.

Ключевые слова: великан, монетный двор, миф, легенда, повествование, сказка, эпос.

Abstract. In World Literary Studies, large-scale work is carried out on the study of folk oral creativity. It is clear to all that, unlike the derivative of human artistic thinking, folk oral creativity has arisen on the basis of a mythological interpretation formed in the worldview of primitive people. Literature, fed on samples of oral creativity, is considered one of the types of art that embodies the